

Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat

pedagogika universiteti

psixologiya kafedrası dotsenti,

psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-4930-2045>

O'ZINI O'ZI FAOLLASHTIRISHNING YUZAGA KELISHIDA O'QUV FAOLIYATIDAN QONIQQANLIK DARAJASINING AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalik davrida o'quv faoliyatidan qoniqqanlik darajasining o'zini o'zi faollashtirish jarayonidagi ahamiyati, xorij psixolog olimlarining psixologik qarashlari hamda o'quv faoliyatida o'zini o'zi faollashtirishning ahamiyatli jihatlari keng yoritilgan. Shuningdek, talaba shaxsida o'quv faoliyatidan qoniqqanlik darajasi shaxs o'zini o'zi faollashtirish tizimiga ta'siri doirasida olib borilgan tadqiqot ishining miqdor va sifat tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: shaxsning o'zini o'zi faollashtirishi, shaxs faolligi, o'quv faoliyati, o'quv faoliyatidan qoniqqanlik darajasi, o'quv motivatsiyasi, tarbiyaviy jarayondan qoniqqanlik, hayot, byudjet, bo'sh vaqt va sog'liqdan qoniqqanlik.

ЗНАЧЕНИЕ УРОВНЯ УДОВЛЕТВОРЕННОСТИ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ В ПРОИСХОЖДЕНИИ САМОАКТИВАЦИИ

Аннотация. В данной статье широко освещены значение уровня удовлетворенности учебной деятельностью в студенческий период в процессе самодетельности, психологические взгляды зарубежных психологов, важные аспекты самодетельности в учебной деятельности. Также представлен количественный и качественный анализ исследовательской работы, проведенной в рамках влияния уровня удовлетворенности учебной деятельностью студента на систему самоактивации личности.

Ключевые слова: самоактивация личности, личная активность, учебная деятельность, уровень удовлетворенности учебной деятельностью, учебная мотивация, удовлетворенность учебным процессом, удовлетворенность жизнью, бюджет, свободное время и здоровье.

THE IMPORTANCE OF THE LEVEL OF SATISFACTION WITH LEARNING ACTIVITIES IN THE OCCURANCE OF SELF-ACTIVATION

Abstract. In this article, the importance of the level of satisfaction with educational activities during the student period in the process of self-activation, the psychological views of foreign psychologists, and the important aspects of self-activation in educational activities are widely covered. Also, the quantitative and qualitative analysis of the research work carried out within the framework of the influence of the level of satisfaction with the educational activity of the student on the system of self-activation of the individual is presented.

Keywords: self-activation of a person, personal activity, educational activity, level of satisfaction with educational activity, educational motivation, satisfaction with the educational process, satisfaction with life, budget, free time and health.

Kirish. O'quv faoliyatida talabalar o'zini o'zi faollashtirish xususiyatining namoyon bo'lishi ta'lim jarayonidan qoniqqanlik darajasi bilan bog'liqlikni tashkil etadi. Shu o'rinda, qoniqish, o'quv faoliyatidan qoniqqanlik kabi psixologik tushunchalarning mazmunini yoritib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar tahlili. Qoniqish – u yoki bu obyektlar hayot sharoiti va faoliyati umuman olganda hayotni odamlar bilan munosabatni insonlarning o'zi va jumladan shaxsan o'zining ham xususiyatlarini subyektiv baholashdir. Hayotdan qoniqishning yuqori darajasini baxt yaqin tuzilishini psixologik komfort deb atasak bo'ladi. Qoniqish – juda keng ma'noga ega bo'lgan keng ko'lamda qo'llaniladigan va shu o'rinda chek-chegarasiz ta'rifu-tavsiflarga ega bo'lgan atamadir.

Butun hayotdan qoniqish va aniq inson bilan bo'lgan munosabatdan qoniqish xususida fikr yuritilganda, bu insonning shaxs uchun qanchalik ahamiyatga egalik darajasidan qat'iy nazar fikr bildirish lozim. Qoniqishni shaxs uchun ahamiyatli darajasiga ko'ra, turli xildagi voqea-hodisalar ta'siridan his etish mumkin. Jumladan, bir necha yillar davomida yozilgan kitobni muvaffaqiyatli tugatish va mazali tushlikdan so'nggi hislar.

Metodlar. Tadqiqot ishimiz davomida talabalik davrida o'quv faoliyatidagi o'zini o'zi faollashtirish aynan ularning ta'lim tizimidan qoniqqanlik darajasiga bog'liqligi tekshirishga harakat qildik. Shu boisdan ham sinaluvchi guruhlarda L.V.Mishenkoning «O'quv faoliyatidan qoniqqanlik darajasini aniqlash» metodikasini o'tkazdik.

Natijalar. Talabalardan ushbu metodika orqali olingan ma'lumotlar miqdor va sifat jihatdan tahlil qilindi, uning natijalari 1-jadvalda aks ettirildi.

1-jadval

1-kurs talabalarida o'quv faoliyatidan qoniqqanlik va o'zini o'zi faollashtirish o'rtasidagi aloqadorlik

(K.Pirson korrelyatsiyasi mezonini bo'yicha)

O'zini o'zi faollashtirish komponentlari	O'quv faoliyatidan umumiy jihatdan qoniqqanlik	O'quv jarayonining mazmunidan qoniqqanlik	Tarbiyaviy jarayondan qoniqqanlik	Tanlangan sohadan qoniqqanlik	Kursdoshlar bilan o'zaro munosabatdan qoniqqanlik	Fakultet boshqaruvchisi va o'qituvchilar bilan o'zaro ta'sirdan qoniqqanlik	Hayot, budjet, bo'sh vaqt va sog'liqdan qoniqqanlik
Vaqtni mo'ljallash olish	-0,00	0,01	-0,10	-0,06	0,01	0	0,06
Qadriyatlar	0,01	0,02	-0,02	0,10	-0,11	-0,02	-0,00
Inson tabiatiga nazar	-0,01	-0,02	-0,00	-0,04	-0,04	-0,00	-0,00
Bilish ehtiyojlari	-0,08	0,01	-0,10	-0,00	-0,02	0,00	-0,04
Ijodkorlikka intilish	-0,08	0,00	-0,11	0,13	-0,27**	-0,09	-0,06
Avtonomlik	-0,07	-0,02	-0,11	-0,02	-0,03	-0,14	-0,05
Spontanlik	-0,06	-0,15	-0,09	0,16	-0,06	-0,04	-0,02
O'z-o'zini tushunish	0,03	0,01	-0,09	0,02	0,02	0,07	0,06
Autosimpatiya	-0,048	0,02	0,02	0,02	0,02	-0,07	0,06
Aloqa o'rnatish	-0,18*	-0,09	-0,22*	-0,11	-0,00	-0,22*	-0,14
Muloqotdagi egiluvchanlik	-0,09	-0,04	-0,11	-0,01	-0,01	-0,12	-0,11

izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$

O'quv faoliyatidan qoniqqanlik va o'zini o'zi faollashtirishning o'zaro aloqadorligi bo'yicha tadqiqot natijalarini tahlil qilishda dastlab 1-kurs talabalarining ko'rsatkichlariga e'tibor qaratamiz. Unga ko'ra, ijodkorlikka intilish kursdoshlar bilan o'zaro munosabatdan qoniqqanlik bilan ($r = -0,27$; $p \leq 0,01$) ahamiyatli teskari bog'liqlik kuzatildi. Natijalardan ma'lum bo'ladiki, talabalarining ijodiy faoliyat bilan shug'ullanishi, o'z ustida ishlashi, o'zining ijodkorlik qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishi, yangilikka intilishiga bo'sh vaqtlarini kursdoshlari bilan o'tkazishni yoqtirishi, turli mavzularda suhbatlashishga moyillik, shuning bilan birga, o'z kursdoshlari bilan bo'lgan munosabatda ular qo'llab-quvvatlash va ma'qullashning ustunlik qilishi kabi omillar to'sqinlik qilishi mumkin. Shuningdek, talabalik davrida shaxs o'z kursdoshlari bilan munosabatlarda ayrim jihatlaridan qoniqmasa, o'zining ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilish orqali munosabatlar tizimida o'zi xos uslublarni qo'llay oladi.

Aloqa o'rnatish o'quv faoliyatidan umumiy jihatdan qoniqqanlik bilan ($r = -0,18$; $p \leq 0,05$), tarbiyaviy jarayondan qoniqqanlik bilan ($r = -0,22$; $p \leq 0,05$), fakultet boshqaruvchisi va o'qituvchilar bilan o'zaro ta'sirdan qoniqqanlik subshkalasi bilan ($r = -0,22$; $p \leq 0,05$) salbiy korrelyatsion aloqadorlik kuzatildi. Mazkur ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, talabalarining ta'limiy faoliyatda boshqalar bilan uyg'unligi, o'zga shaxslar bilan kuchli va samimiy munosabatlarni o'rnatish qobiliyatining rivojlanishi o'quv jarayonining umumiy holati, ma'naviy ta'sirlar, fakultet rahbariyati yoki o'qituvchilar bilan munosabatdan qoniqmaslik kabi sifatlar bilan belgilanadi. Xususan, talaba shaxsida ta'lim beruvchi o'qituvchilar bilan munosabatlarni o'rnatish jarayonidan ko'ngli to'lmasa, ular bilan aloqa o'rnatishga intilish darajasi ortib boradi.

Yuqorida keltirilgan natijalar asosida shuni ta'kidlash joizki, 1-kurs talabalarida o'zini o'zi faollashtirish komponentlari orasida ijodkorlikka intilish, aloqa o'rnatish bilan o'quv faoliyatidan qoniqqanlikning ayrim turlari o'rtasida korrelyatsion aloqadorliklar kuzatildi. Mazkur metodika bo'yicha 3-kurs talabalarining natijalari esa 2-jadvalda o'z aksini topgan.

2-jadval

3-kurs talabalarida davrida o'quv faoliyatidan qoniqqanlik va o'zini o'zi faollashtirish o'rtasidagi aloqadorlik

(K.Pirson korrelyatsiyasi mezonini bo'yicha)

O'zini o'zi faollashtirish komponentlari	O'quv faoliyatidan umumiy jihatdan qoniqqanlik	O'quv jarayonining mazmunidan qoniqqanlik	Tarbiyaviy jarayondan qoniqqanlik	Tanlangan sohadan qoniqqanlik	Kursdoshlar bilan o'zaro munosabatdan qoniqqanlik	Fakultet boshqaruvchisi va o'qituvchilar bilan o'zaro ta'sirdan qoniqqanlik	Hayot, budget, bo'sh vaqt va sog'liqdan qoniqqanlik
Vaqtni mo'ljallash	-0,03	0,00	-0,00	-0,00	0,05	0,00	0,08
Qadriyatlar	0,15	0,15	0,15	0,26**	0,10	0,09	0,07
Inson tabiatiga nazar	0,19	0,19	0,19	0,19	0,09	0,19	0,18
Bilish ehtiyojlari	0,07	0	0,00	0,12	0,02	0,10	0,12
Ijodkorlikka intilish	0,14	0,13	0,08	0,24*	0,09	0,08	0,07
Avtonomlik	0,15	0,12	0,11	0,17	0,05	0,21*	0,20*
Spontanlik	0,11	0,07	0,06	0,09	0,02	0,13	0,21*

O'z-o'zini tushunish	0,09	0,03	0,06	0,02	0,00	0,15	0,17
Autosimpatiya	0,02	-0,02	0,04	-0,06	0,06	-0,05	0,06
Aloqa o'rnatish	0,18	0,26**	0,09	0,27**	0,05	0,16	0,20*
Muloqotdagi egiluvchanlik	-0,01	0,02	-0,05	0,03	-0,06	-0,03	0,07

izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$

2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 3-kurs talabalarida qadriyatlar tanlangan sohadan qoniqqanlik bilan ($r=0,26$; $p \leq 0,01$) o'zaro kuchli aloqadorlikka egaligi kuzatildi. Natijalardan ma'lumki, talabalik davrida shaxsning o'zi tanlangan kasbini yoqtirishi, yuqori malakali mutaxassis bo'lish uchun doimo bilim darajasini oshirishga harakat qilishning ortishi o'z qadriyatlarini anglash, o'quv faoliyatida odamlar bilan uyg'un bo'lish hamda sog'lom munosabatlarga asoslangan qadriyatlarga intilish jarayoniga sezilarli ta'sir o'tkazadi. Shuningdek, o'zlari tanlangan bo'lg'usi kasbiy faoliyati orqali ijtimoiy tan olinishga va jamiyatda hurmat topishga yordam beradi, deb hisoblashadi. Ular tanlangan kasbi o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishiga shart-sharoitlar yaratishiga, kelajakdagi kasbiy faoliyati o'zini va oilasini moddiy ta'minlashiga ishonganliklari sababli o'z kasbidan qoniqqanlik darajasi yuqori hisoblanadi. Bu esa shu bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar sohasining ham rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Ijodkorlikka intilish tanlangan sohadan qoniqqanlik bilan ($r=0,24$; $p \leq 0,05$) ahamiyatli bog'liqlik kuzatildi. Mazkur ko'rsatkichlardan ma'lum bo'ladiki, o'quv faoliyatida talaba shaxsining o'z ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishi, yangilikka intilishi tanlangan sohadan qoniqqanlik darajasi bilan bevosita bog'liqlikni tashkil etadi. Agar talabalar bo'lg'usi kasbidan qoniqsa, o'ziga har tomonlam ma'qul kelsa, o'z sohasi bo'yicha yangilik qilishga va ijodiy sifatlarini namoyon etishga moyil bo'lishadi. Shu jihatdan olib qaraganda, yetuk mutaxassis kadrlarning shakllanishida o'zi tanlangan sohadan qoniqish hissi muhim o'rin tutadi.

Avtonomlik fakultet boshqaruvchisi va o'qituvchilar bilan o'zaro ta'sirdan qoniqqanlik subshkalasi bilan ($r=0,21$; $p \leq 0,05$), hayot, byudjet, bo'sh vaqt va sog'liqdan qoniqqanlik bilan ($r=0,20$; $p \leq 0,05$) o'zaro aloqadorlikka egaligi ma'lum bo'ldi. Bundan shuni anglash mumkinki, talabalik davrida shaxsdagi mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish va faoliyat yuritish xususiyati dekanat tomonidan o'quv faoliyati uchun qulay muhit yaratilganligi, o'qituvchilar talabalarga zarur ko'nikma va malakalarni doimo berib borishi, o'z o'qituvchilariga hurmat bilan qarash, salomatlik va iqtisodiy ahvolidan qoniqqanlik kabi omillar ta'sirida rivojlanib boradi. Talabalarining psixik va jismoniy salomatligidagi muammolar, bo'sh vaqtning tanqisligi, o'qituvchilar bilan munosabatlardagi qiyinchiliklar talaba shaxsida mustaqillik xususiyatining qaror topishiga to'siq bo'ladi.

Spontanlik hayot, byudjet, bo'sh vaqt va sog'liqdan qoniqqanlik bilan ($r=0,21$; $p \leq 0,05$) o'zaro bog'liqlikni tashkil etganligi aniqlandi. Mazkur ko'rsatkichlarga tayanib, ta'kidlash joizki, talabalaridagi tashqi ta'sirlar bilan emas, balki ichki sabablar bilan yuzaga keladigan psixologik jarayonlarning o'ziga xos xususiyati, ya'ni ichki impulslar ta'sirida faol harakat qilish qobiliyatining namoyon bo'lishida turmush tarzi, iqtisodiy sharoit, ortiqcha vaqtlarning mavjudligi va salomatlikdan qoniqqanlik singari psixologik ta'sirlar muhim rol o'ynaydi. Demak, o'quv faoliyatida namoyon bo'luvchi spontanlik xususiyati shaxsning qoniqqanlik darajasi bilan o'zaro aloqadorlikka ega ekanligi ma'lum bo'ldi.

Aloqa o'rnatish o'quv jarayonining mazmunidan qoniqqanlik ($r=0,26$; $p \leq 0,01$), tanlangan sohadan qoniqqanlik bilan ($r=0,27$; $p \leq 0,01$), hayot, byudjet, bo'sh vaqt va sog'liqdan qoniqqanlik bilan ($r=0,20$; $p \leq 0,05$) ahamiyatli bog'liqlik aniqlandi. Mazkur ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, o'quv faoliyatida talabalarining boshqalar bilan uyg'unligi, o'zga shaxslar bilan kuchli va samimiy munosabatlarni o'rnatish qobiliyatining rivojlanishi mazmunli ta'lim berilishi, o'zi tanlangan bo'lg'usi kasbidan mamnunlik, sog'liqdan qoniqish kabi sifatlar bilan belgilanadi. Talaba shaxsida o'quv jarayonida nafaqat o'zlarining o'qishi natijalaridan, balki o'quv jarayonining o'zidan ham

rohatlanishadi. Ular universitetda ta'lim olish o'zlarining ijodiy va intellektual salohiyatining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, ta'lim muassasasida olingan bilim va ko'nikmalar esa kelajakdagi kasbiy faoliyatning muvaffaqiyatlilikini ta'minlaydi, deb hisoblashadi. Bu esa ularning boshqalar bilan munosabatlarga faol kirishishida namoyon bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan natijalar asosida shuni qayd etish mumkinki, 3-kurs talabalarida ham o'zini o'zi faollashtirish komponentlari orasida qadriyatlar, ijodkorlikka intilish, avtonomlik, spontanlik, aloqa o'rnatish bilan o'quv faoliyatidan qoniqqanlikning tanlanma turlari o'rtasida bog'liqlik holatlari aniqlandi.

Talabalik davrida o'quv faoliyatidan qoniqqanlik va o'zini o'zi faollashtirish o'rtasida aloqadorlikni tekshirishga harakat qildik. Buning uchun tadqiqotda ishtirok etgan sinaluvchilarning umumiy natijalariga e'tiborimizni qaratdik (3-jadval).

3-jadval

Talabalik davrida o'quv faoliyatidan qoniqqanlik va o'zini o'zi faollashtirish o'rtasidagi aloqadorlik

(K.Pirson korrelyatsiyasi mezonini bo'yicha)

O'zini o'zi faollashtirish komponentlari	O'quv faoliyatidan umumiy jihatdan qoniqqanlik	O'quv jarayonining mazmunidan qoniqqanlik	Tarbiyaviy jarayondan qoniqqanlik	Tanlangan sohadan qoniqqanlik	Kursdoshlar bilan o'zaro munosabatlardan qoniqqanlik	Fakultet boshqaruvchisi va o'qituvchilar bilan o'zaro ta'sirdan qoniqqanlik	Hayot, budjet, bo'sh vaqt va sog'liqdan qoniqqanlik
Vaqtni mo'ljalga olish	-0,02	-0,00	-0,05	-0,05	0,01	-0,01	0,07
Qadriyatlar	0,11	0,09	0,07	0,19**	-0,01	0,06	0,04
Inson tabiatiga nazar	0,10	0,08	0,09	0,09	0,02	0,10	0,08
Bilish ehtiyojlari	0,02	0,01	-0,04	0,07	-0,01	0,06	0,03
Ijodkorlikka intilish	0,07	0,08	-0,01	0,23**	-0,08	0,04	0,01
Avtonomlik	0,05	0,05	0,00	0,08	0,00	0,03	0,06
Spontanlik	0,05	-0,03	-0,00	0,15*	-0,01	0,06	0,08
O'z-o'zini tushunish	0,04	0,012	-0,02	0,00	0,00	0,08	0,09
Autosimpatiya	0,00	0,00	0,03	-0,00	0,04	-0,05	0,06
Aloqa o'rnatish	-0,01	0,08	-0,07	0,07	0,02	-0,04	0,01
Muloqotdagi egiluvchanlik	-0,07	-0,02	-0,08	0,00	-0,04	-0,10	-0,03

izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$

3-jadvalda berilgan natijalarga ko'ra, sinaluvchilarning umumiy ko'rsatkichlari tahlil qilinganda, qadriyatlar tanlangan sohadan qoniqqanlik bilan ($r=0,19$; $p \leq 0,01$) o'zaro kuchli bog'liqlik mavjudligi namoyon bo'ldi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'quv faoliyatida talaba shaxsining o'zi tanlagan kasbidan mamnunligi, jamiyatda o'zining munosib o'rnini egallashga harakat qilishning ortishi o'z qadriyatlarini anglash, ta'limiy jarayonda insonlar bilan uyg'un bo'lish hamda ijobiy munosabatlarga asoslangan qadriyatlarga intilish jarayoniga o'zining ta'sirini

134 o'tkazadi. Shu bilan bir qatorda, o'zlari tanlagan bo'lg'usi kasbiy faoliyatida ijtimoiy tan olinishda va jamiyatda hurmat topishda yordam berishiga ishonishadi. Ular tanlagan kasbi o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga imkon yaratishiga, kelajakdagi kasbiy faoliyati o'zining va oila azolarining barcha ehtiyojlarini qondirishiga ishonganliklari sababli o'z kasbidan qoniqqan hisoblanishadi. Bu esa shu bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar sohasining ham rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Ijodkorlikka intilish tanlangan sohadan qoniqqanlik bilan ($r=0,23$; $p\leq 0,01$) ahamiyatli aloqadorlik kuzatildi. Mazkur ko'rsatkichlardan ma'lum bo'ladiki, o'quv faoliyatida talaba shaxsining o'z ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishi, yangilikka intilishi tanlangan sohadan qoniqqanlik darajasi bilan bevosita bog'liqlikni tashkil etadi. Agar talabalar bo'lg'usi kasbidan qoniqsa, o'ziga har tomonlam ma'qul kelsa, o'z sohasi bo'yicha yangilik qilishga va ijodiy sifatlarini namoyon etishga moyil bo'lishadi. Shu jihatdan olib qaraganda, yuqori salohiyatli mutaxassis kadrlarning yetishib chiqishida o'zi tanlagan sohadan qoniqish hissi muhim ahamiyat kasb etadi.

Spontanlik tanlangan sohadan qoniqqanlik bilan ($r=0,15$; $p\leq 0,05$) o'zaro bog'liqlik tashkil etganligi aniqlandi. Mazkur ko'rsatkichlarga tayanib, ta'kidlash joizki, talabalaridagi tashqi ta'sirlar bilan emas, balki ichki sabablar bilan yuzaga keladigan psixologik jarayonlarning o'ziga xos xususiyati, ya'ni ichki qo'zg'atuvchilar ta'sirida faol harakat qilish qobiliyatining namoyon bo'lishida o'zi tanlagan kasbdan qoniqqanlik singari psixologik ta'sirlar muhim rol o'ynaydi. Demak, o'quv faoliyatida namoyon bo'luvchi spontanlik xususiyati shaxsning qoniqqanlik darajasi bilan bevosita bog'liqlikni tashkil etadi. Ayniqsa, talaba o'ziga ma'qul keluvchi faoliyat bilan shug'ullansa, unda ichki ta'sirlar roli ortib boradi va shug'ullanayotgan sohada yanada o'zini faol namoyon etishga zamin hozirlaydi.

Xulosa. Tadqiqot natijalarini tahlil qilganda, talabalik davrida o'zini o'zi faollashtirishning rivojlanishi o'quv faoliyatidan qoniqqanlik darajalari bilan bevosita bog'liqlikni tashkil etadi. Xususan, bunda tanlangan sohadan qoniqqanlik, tarbiyaviy jarayondan qoniqqanlik, o'quv jarayonining mazmunidan qoniqqanlik, fakultet boshqaruvchisi va o'qituvchilar bilan o'zaro ta'sirdan qoniqqanlik, kursdoshlar bilan o'zaro munosabatdan qoniqqanlik, hayot, byudjet, bo'sh vaqt va sog'liqdan qoniqqanlik darajalari alohida ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Леонтев, А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. /А.Н Леонтев - М.: Академия, 2004 - 121с.
2. Маслоу А. Мотивация и личность. - М., 1954. – электронный ресурс сайта http://www.koob.ru/age_psychology/
3. Олпорт, Г. Становление личности: избранные труды/Г. Олпорт - М: Смысл, 2002. - 464 с
4. Роджерс, К. Взгляд на психотерапию. Становление человека./ К. Роджерс- М.: Прогресс, 1998, 480 с.
5. Хьелл, Л., Зиглер, Д. Теории личности. - СПб.: Питер, 2003. - 608 с